

O'ZBEKISTON TARIXI

Matnazarova Nilufar Davranbayevna

*Xorazm viloyati Shovot tumani 27-son ayrim fanlari
chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflari bor umumta'lim maktabi
Tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: O'zbek millati haqli ravishda sayyoramizdagi eng qadimgilardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning o'ziga xos madaniyati sivilizatsiyalar avvalida shakllana boshlagan va ming yillar davomida jiddiy o'zgarishlarga duch kelgan. O'zbekiston hududi O'rta Osiyoning qoq markazida, Sirdaryo va Amudaryoning o'rtasida joylashgan. Ajablanarlisi shundaki, cho'lning o'rtasidagi voaha har doim jasur va shuhratparast savdogarlarni, jangchilarni, sarguzashtlarni va sayohatchilarni o'ziga jalb qilgan ma'naviy-madaniy sohadagi yutuqlar tahlil etilgan. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli siyosiy, iqtisodiy, ma'daniy aloqalari yoritilgan. Chunonchi, O'zbekiston tarixan qisqa muddatda jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi, global masalalarda o'zining mustaqil ovozigaga ega bo'lgan davlat darajasiga ko'tarildi.

Kalit so'zlar: integratsiya, sivilizatsiya, Movarounahr, general-gubernator, ko'chmanchi kushonlar, demokratik boshqaruv.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda bu erda Ahamoniylar yoki, boshqacha qilib aytganda, Fors davlati gullab-yashnagan. Keyin yunonistonlik qo'mondon Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) hududga bostirib kirib, ellinistik davr boshlanganida hokimiyat qulagan. Bu davrda savdo rivojlanadi, yirik shaharlar qad ko'taradi, Yunon-Baqtriya podsholigi hukmronlik qila boshlagan.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya podsholigi parchalanib, tarixda yangi bir davr boshlanadi, ya'ni ko'chmanchi kushonlar qabilasi asos solgan Kushon davlati tashkil etiladi. Bu davrda savdo, odamlar harakati va millatlararo aloqalar rivojlana boshlaydi. Shaharlarning qulay hududiy joylashuvi tufayli Buyuk ipak yo'li bugungi O'zbekiston hududidan o'tgan. Ushbu yo'nalish bo'ylab Andijon, Qo'qon, Rishton, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi yirik savdo shaharlari paydo bo'ldi va rivojlandi. Keyin Parfiya, Kang', Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi kabi davlatlar gullab-yashnadi. VII asrda bu hudud arablar tomonidan bosib olinib, u Movarounnahr deb nomlandi. XII asrda Chingizxonning bosqini yuz berdi va Chag'atoy ulusi shakllandi. Ammo bu hududning gullab-yashnashi o'n to'rtinchi asrda, Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganida amalga oshdi. U Samarqandni poytaxtga, iqtisodiy va madaniy markazga aylantirdi. Keyin Samarqand ko'chmanchi Dasht-i

qipchoq qabilalari tomonidan bosib olinib, yangi Shayboniylar sulolasi davlati tashkil etildi. VI asrdan XIX asr o‘rtalariga qadar Xiva, Qo‘qon xonliklari va Buxoro amirligi hukmronlik qildi.

XIX asrning 60-yillarida hududga chor Rossiyasi bostirib kirishi natijasida Turkiston general-gubernatorligi tuzildi. 1917-yilda O‘zbekiston Sovet Respublikasiga aylandi. Shu davrda ko‘plab respublikalardan turli millatlarning ommaviy ravishda ko‘chishi ro‘y berdi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston mustaqillikka erishdi. Respublika BMTga a‘zo bo‘ldi, demokratik boshqaruv shakli va bozor iqtisodiyoti rivojlana boshladi.

O‘zbekistonning 1991-yilning 31 avgustida mustaqillikni qo‘lga kiritishi murakkab siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar ostida amalga oshdi. Jumladan, 130-yil davomida hukmronlik qilgan mustamlaka tizimi Respublikaning mustaqil rivojlanishiga to‘sqinlik qilib keldi. Mustaqillikning e‘lon qilinishi xalqning va hukumatning oldiga tubdan islohotlar o‘tkazish vazifasini qo‘ydi. Prezident I. Karimov boshchiligida hukumat tomonidan amalga oshirilgan ichki va tashqi islohotlar natijasida O‘zbekiston dunyo ham jamiyatida mustaqil davlat sifatida olindi. Qisqa muddatlar davomida O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi. I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va amalga tadbiiq etilgan “O‘zbek modeli” yurtning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratdi. Qisqa muddatlar ichida don va neft mustaqilligiga erishildi, O‘zbekiston agrar-hom-ashyo davlatidan tez rivojlanayotgan, zamonaviy texnika va tehnologiyalarni eksport qiluvchi davlatga aylandi. O‘zbekiston tutgan yo‘lining naqadar to‘g‘ri ekanligi 2008-yilda boshlangan “jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi” davrida yana bir bor isbotlandi. Inqiroz davridan muvafaqqiyatli chiqqan «O‘zbek modeli» xalqaro moliyaviy tashkilotlar va ekspertlar tomonidan yuksak ijobiy baholarga sazovor bo‘ldi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, hech bir davlat dunyo hamjamiyatidan ayri holatda rivojlania olmaydi. Har tomonlama o‘ylanib olib borilgan tashqi siyosat natijasida O‘zbekiston 180dan oshiqroq dunyo davlatlari tomonidan tan olindi, 130 dan ko‘proq davlatlar bilan diplomatic munosabatlar o‘rnatildi, bugungi kunda O‘zbekiston BMT, MDH, SHHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar a‘zo hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Evropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Yakin Sharq va Osiyo mintaqadagi davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida uning konstitutsiyasiga muvofiq insonlarning millati, tili, dinidan qati‘iy nazar teng huquqliligi ta‘minlangan. Bugungi kunda Respublikada yuzdan ortiq turli millat va elat vakillari inoqlikda yashamoqdalar, ular uchun zarur shart sharoitlar yaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati